

2023- yilning yanvar-sentabr oylarida Toshkent viloyatida ishlab chiqarilgan yalpi hududiy mahsulot

YAHM hajmi,
mlrd. so'm

76 383,9

YAHM o'sish
sur'ati

103,6 %

YAHM deflyator
indeksi

109,1 %

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2023- yilning yanvar-sentabrda Toshkent viloyati bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rinlarda – YAHM) hajmi joriy narxlarda 76 383,9 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2022- yilning yanvar-sentabri bilan taqqoslaganda 3,6 % ga o'sdi.

YAHM deflyator indeksi 2022- yilning yanvar-sentabridagi narxlariga nisbatan 9,1 % ni tashkil qildi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YAIMning shakllanishida Toshkent viloyatining qo'shgan hissasi 10,2 % ga yetdi.



**2023- yilning yanvar-sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha
YAHM ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari**

	<i>Mrd. so'm</i>		<i>O'sish sur'atlari, o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da</i>
	<i>2022- yil</i>	<i>2023- yil</i>	
I. YAHM, jami	67 544,3	76 383,9	103,6
<i>shu jumladan:</i>			
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	64 836,4	73 479,2	103,6
mahsulotlarga sof soliqlar	2 707,9	2 904,7	103,1
II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	64 836,4	73 479,2	103,6
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	14 096,4	15 967,2	102,1
sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	34 768,5	38 460,2	104,0
sanoat	31 200,4	34 198,5	103,6
qurilish	3 568,1	4 261,7	107,3
xizmatlar	15 971,5	19 051,8	104,3
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	4 027,6	4 827,0	107,1
tashish va saqlash, axborot va aloqa	3 000,4	3 590,7	104,9
boshqa xizmat tarmoqlari	8 943,5	10 634,1	102,8



YALPI HUDUDIY MAHSULOTNI ISHLAB CHIQRARISH

Quyida keltirilgan infografikadan ko'rinib turganidek, aholi jon boshiga hisoblangan YAHM 25 335,5 ming so'mni tashkil etdi va bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1,7 % ga yuqoridir.

2023- yilning yanvar-sentabr oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YAHMning o'sish sur'atlari
(o'tgan yilning mos davriga nisbatan % hisobida)



2023- yilning yanvar-sentabr oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YAHM hajmi
(ming so'mda)



Yanvar-sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)

	2022- yil	2023- yil
I. YAHM, jami	100,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>		
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	96,0	96,2
mahsulotlarga sof soliqlar	4,0	3,8
II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	100,0	100,0
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	21,7	21,7
sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	53,6	52,3
sanoat	48,1	46,5
qurilish	5,5	5,8
xizmatlar	24,7	26,0
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	6,2	6,6
tashish va saqlash, axborot va aloqa	4,6	4,9
boshqa xizmat tarmoqlari	13,9	14,5

Yanvar-sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)

2022- yil



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi

21,7%

Sanoat

48,1%

Qurilish

5,5%

Xizmatlar

24,7%

2023- yil



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi

21,7%

Sanoat

46,5%

Qurilish

5,8%

Xizmatlar

26,0%

2023- yilning yanvar-sentabr oylarida hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat (YAQQ) hajmi umumiy YAHMning 96,2 % ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 3,8 % ini tashkil etdi.

Hisobot davrida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligining YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi 21,7% ni, sanoat tarmog'i 46,5% ni, qurilish 5,8% ni va xizmatlar sohasi 26,0 % ni tashkil qildi.



● Yalpi qo'shilgan qiymat

● Mahsulotlarga sof soliqlar


2023- yilning yanvar-sentabr oylarida YAHM
o'lishida tarmoqlarning hissasi (jamiga
nisbatan % da)

YAHM



3,6

Qishloq, o'rmon
va baliqchilik
xo'jaligi



0,4

Sanoat



1,7

Qurilish



0,4

Xizmatlar



1,0

Mahsulotlarga
sof soliqlar






0,1

YAHM o'sishiga qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmog'i 0,4 f.p. (2022-yilning yanvar-sentabrda – 0,7 f.p.), sanoat tarmog'i – 1,7 f.p. (2022-yilning yanvar-sentabrda – 3,3 f.p.), qurilish tarmog'i – 0,4 f.p. (2022-yilning yanvar-sentabrda – 0,3 f.p.) va xizmat ko'rsatish sohasi – 1,0 f.p. (2022-yilning yanvar-sentabrda – 1,6 f.p.) ijobiy hissa qo'shdi.

Mahsulotlarga sof soliqlarning o'sishi hisobiga YAHM 0,1 f.p. (2022-yilning yanvar-sentabrda – 0,3 f.p.) ga ko'paydi.



Yanvar-sentabr oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mutlaq o'sish sur'atlari (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)



■ 2022- yil
■ 2023- yil

2023- yilning yanvar-sentabrida YAHMning o'sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobiy o'sish sur'atlari bilan bog'liqdir. O'sish sur'atlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 102,1% (YAHM ning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi – 21,7 %), sanoatda – 103,6 % (46,5 %), qurilishda – 107,3 % (5,8 %), xizmatlar sohasida – 104,3 % ni (26,0 %) tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida o'sish sur'atlari savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 107,1 % (6,6 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa 104,9 % (4,9 %), boshqa xizmat tarmoqlarida 102,8 % dan (14,5 %) iborat bo'ldi.




Yanvar-sentabr oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha deflyator indeksi


(o'tgan yilgning mos davriga nisbatan % da)




YAHM




Qishloq, o'rmon
va baliqchilik
xo'jaligi




Sanoat



Qurilish




Xizmatlar



2023- yilning yanvar-sentabrida YAHM deflyatori indeksi 2022- yildagi narxlarga nisbatan 109,1 foizni tashkil etdi. YAHM deflyatori indeksining eng yuqori ko'rsatkichlari xizmatlarda – 114,4 % va qurilishda – 111,3 % qayd etildi.

Yanvar-sentabr oylarida kichik biznesning hajmi va YAHMdagi ulushi (jamiga nisbatan %da)



2023- yilning yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik 35 825,5 mlrd. so‘mni tashkil etib (2022- yilning yanvar-sentabr oylarida – 30 081,2 mlrd. so‘m). YAHMdagi ulushi 48,8 %ni tashkil qildi (2022- yilning yanvar-sentabr oylarida – 46,4 %).

Kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushining o‘tgan yilga nisbatan o‘sishi yirik korxonalar ulushining kamayishi bilan bog‘liq.

